

**ISLOM MOLIIYASI – MILLIY IQTISODIYOTIMIZ UCHUN SAMARALI
MOLIYALASHTIRISH MANBAI
(SALAM - ISLOM KREDITLASH VOSITASI MISOLIDA).**

Isroilov Qurbonali Shuxrat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank va Moliya Akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi moliyaviy muammolar o'rganildi va islomiy moliyaviy instrument-salam orqali mavjud muammolarga yechimlar taklif qilindi.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, salam, paralel salam, qishloq xo'jaligi, Yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya.

Abstract: This article examines the financial problems in Uzbekistan's agricultural sector and proposes solutions to existing issues through the Islamic financial instrument Salam.

Keywords: Islamic finance, Salam, parallel Salam, agriculture, Gross Domestic Product, inflation.

Hozirgi kunda yurtimizda islom moliya instrumentlarini joriy qilish tog'risida bir qator ijobiy ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilish haqida dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29-dekabrda Oliy Majlisga murojaatida aytib o'tgan edi. Nihoyat O'zbekistonda islomiy moliya to'g'risidagi uzoq kutilgan qonun parlament quyi palatasi tomonidan qabul qilindi. Bu muhim qadam mamlakat moliya tizimida yangi sahifa ochib, mavjud an'anaviy banklar va bo'lajak moliya institutlariga islomiy bank xizmatlarini taklif etish imkoniyatini yaratadi.

Islom moliyaviy instrumentlaridan biri salamning milliy iqtisodiyotimizning qishloq xo'jaligi tarmog'iga joriy qilishning ijobiy taraflari juda katta. Misol uchun 2025 yilda Respublikamiz yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligini ulushi 19.2 foizni tashkil qildi va ish bilan band jami aholining 25.9 foizi ushbu tarmoqda faoliyat yuritmoqda. O'zbekistonda jami yer fondi 44.9 million gektarni tashkil etib shundan 26.2 million gektari qishloq xo'jaligi uchun foydalanilmoqda.

Yuqoridagi raqamlardan ko'rinib turibdiki O'zbekistonda yerlarning katta qismi qishloq xo'jaligi uchun ajratilgan va ushbu tarmoqda milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishimiz uchun ulkan resurs va ishchi kuchi mavjud. Bugungi kunda qishloq xo'jaligimizda faoliyat yuritayotgan fermer va dehqon xo'jaliklarimizni moddiy texnika bazasini rivojlantirish uchun tijorat banklaridan tashqi jalb qilingan mablag'lar evaziga imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Ammo bir tarafdin ushbu kreditlar fermer xo'jaliklarimizni yuqori sifatli hosil

olishiga ko'maklashayotgan bo'lsa boshqa tarafdin ularning moliyaviy ahvolini og'irlashishiga sabab bo'lmoqda. Xo'sh bunday vaziyatda fermer va dehqon xo'jaliklarimiz uchun tashqi manbadan kredit evaziga o'z ehtiyojlarini ta'minlashdan boshqa yana qanaqa optimal moliyalashtirish usullari bor: Ushbu maqolada islom moliyasi instrumenti salam orqali yuqoridagi muammoga yechim taklif qilamiz. Salam bu islomiy moliyaviy instrument bo'lib bunda qarzdor o'z mahsulotini yetishtirish (asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari) uchun qarz beruvchidan pul oladi hamda yetishtirgan mahsulotini salam shartnomasida kelishilgan hajmda, narxda va vaqtda qarz beruvchiga sotish majburiyatini oladi. Kreditlashning ushbu usulini ham o'z tarixi bor. Ma'lumki islom ta'limotida foiz hisobiga kredit olish harom qilingan va payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) davrlarida ko'plab dehqonlar o'z hosillarini yetishtirish uchun pul mablag'lariga muhtoj bo'lishadi, shunda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) Madinada ommalashgan salam moliyalashtirish usulini butun islomiy xalqlarga joriy qilishga ruxsat bergan. Quyidagi jadvalda salam moliyalashtirish usuli ko'rsatib o'tilgan.

1-jadval.

A dehqon	Ekish-yig'im davri	Ekish davridagi bozor bahosi 1kg	Salam shartnomada-gi baho 1 kg	Jami salam shartnomada kelishilgan kg	Salam shartnoma summasi (B xaridor bilan)	Yig'im davridagi bozor bahosi
Bug'doy	noyabr-iyun	4000	3500	10 000	35 000 000	3 800
Sholi	iyun – oktabr	9 500	8000	10 000	80 000 000	9 000
Arpa	noyabr-may	3500	3 000	10 000	30 000 000	3 200

Yuqoridagi jadvalda A dehqon xo'jaligi o'zi yetishtirmoqchi bo'lgan hosilni salam shartnomasi orqali B xaridorga sotib ketadigan xarajatlarni oldindan qoplash imkoniyatiga ega bo'lishi tasvirlangan. Salam shartnomasida sotuvchi ya'ni mahsulot yetishtiruvchi hech qanday qo'shimcha foizlarsiz oldindan pul mablag'lariga ega bo'lsa, xaridorlar esa bozor bahosidan arzonroq narxda kelajakda mahsulot olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Salam moliyalashtirish vositasini milliy iqtisodiyotimizga ham katta foydasi bor chunki ushbu shartnomalar orqali ulkan hosillar yetishtiriladi bu esa Yalpi ichki mahsulotimizni oshishiga, narxlarning barqarorlashishiga, aholini bandligini ta'minlashga va inflyatsiyani pasayishiga xizmat qiladi. Salam shartnomasining asosiy mazmuni bozordagi narxdan kelajakda arzonroq narxda mahsulot yetishtirishni taklif qilishni anglatadi va aynan ushbu faoliyat inflyatsiyaga qarshi kurashishda asosiy o'rin tutadi.

Salam shartnomasida mahsulot oluvchi bo'lib ishtirok etish uchun xaridordan yagona ta'lab o'z vaqtida mahsulot yetishtiruvchiga pul yoki kerakli uskunani yetkazib berish bo'lsa mahsulot yetishtiruvchiga birmuncha ko'proq talablar qo'yiladi:

1) O'zi yetishtirmoqchi bo'lgan hosil haqida yetarlicha tajribaga ega bo'lishi;

2) Shartnoma shartlarini bajaraolmasa olgan mablag'ni xaridorga qaytarishni kafolatlashi (garov mulki yoki sug'urta).

3) Hosil yetishtirish davomida xaridorga jarayonni kuzatishga imkon yaratib berishi;

4) Sarflangan pulni faqat salam shartnomada ko'rsatilgan faoliyatga sarflashi.

Bizning yurtimizda bugungi kunda salam shartnomalar qonuniy amaliyotda foydalanilmayotgan bo'lsada, qishloqlarimizda dehqonlar orasida hosil ekish davrida odamlardan pul olib hosil yig'im davrida hosil bilan qaytarish amaliyotlari uchrab turadi. Ushbu amaliyotlar o'zaro ishonch va manfaatga asoslangan bo'lib, dehqonlarimiz o'zlari bilmagan holda salam shartnomasi shartlari asosida mablag' jalb qilib mahsulot yetishtirmoqda.

Salam shartnomasi tuzgan xaridorlar o'zlarining kelajakda egalik qiladigan mahsulotlarini yana boshqa bir tomonga salam shartnomasi asosida sotish huquqiga ega, lekin bu yerda birinchi salam shartnomasidagi majburiyatlar bilan ikkinchi salam shartnomasidagi majburiyatlarning bajarilishi bir biriga bog'liq emas. Ya'ni xaridor birinchi salam shartnomasidagi shartlar bajarilmagan taqdirda ham ikkinchi salam shartnomasida mol yetkazib beruvchi sifatida o'z majburiyatlarini bajarishi shart. Ushbu jarayon parallel salam shartnomasi deyiladi. Parallel salam shartnomasining asosiy shartlaridan biri birinchi salam shartnomasi tuzilib ma'lum bir vaqt utgandan keyin aytaylik mahsulot ekilib dastlabki rivojlanishdan o'tgandan so'ng ikkinchi salam shartnomasiga tuzishga ruxsat beriladi. Odatda birinchi salam shartnomasi tuzilgan vaqt bilan ikkinchi salam shartnomasi tuzilgan vaqt qanchalik ko'p farq qilsa, parallel salam shartnomasining riski shunchalik kam bo'ladi yoki aksincha. Bunda birinchi salam shartnomasi bilan ikkinchisi bir vaqtda tuzilishi mumkin emas.

2-jadval.

B xaridor (ya'ni sotuvchi)	C xaridor bilan parallel salam shartnomasi sanasi	Parallel Salam shartnomasidagi baho 1 kg	Dastlabki Salam shartnomasidagi baho 1 kg
Bug'doy	mart	3800	3500
Sholi	avgust	8500	8000
Arpa	mart	3300	3000

Ushbu jadvalda parallel salam shartnomasi keltirilgan. Ya'ni 1-jadvalda keltirilgan A dehqon noyabr oyi B xaridor bilan salam shartnomasi 10 tonna bug'doy yetishtirish uchun tuzadi. A dehqon noyabr oyi bug'doy ekib mart oyigacha bug'doyni parvarishlaydi, ushbu jarayonni B xaridor ham kuzatib boradi. Mart oyi bug'doy ma'lum darajada o'sib yaxshi xosil berilishiga B xaridorni ishonchi komil bo'lgandan so'ng, B xaridor ikkinchi bir C xaridor (aytaylik nonvoy) bilan parallel salam shartnomasi tuzadi. Bunda parallel salam shartnomasidagi 1 kg bug'doy narxi dastlabki salam shartnomasidagi 1 kg bug'doyni narxidan yuqori va bozor narxidan pastroq bo'ladi. Lekin parallel salam shartnomasidagi narx doim ham dastlabki salam shartnomasidagi narxdan yuqori bo'lavermaydi. Masalan B xaridorga shoshilinch pul zarur bo'lib qolsa yoki bozordagi narxlar u dastlabki salam shartnomasi tuzgan vaqtdagidan pastroq bo'lsa parallel salam shartnomasidagi mahsulot narxini arzonlashtirishga to'g'ri keladi. Parallel salam shartnomasining tugash vaqti dastlabki salam shartnomasining tugash vaqti bilan bir xil yoki undan keyin bo'ladi.

Tijorat banklari salam shartnomalari orqali ham xaridor ham mahsulot sotuvchi sifatida ishtirok etadi va mahsulotni sotib olgandagi narx bilan mahsulotni sotishdagi narx o'rtasidagi farq bankning foydasi hisoblanadi. Odatda ko'plab tadbirkorlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar ekish mavsumidan oldinroq bankka salam shartnomasi orqali loyihalarini moliyalashtirishni so'rab murojaat qiladi va bank barcha loyihalarni o'rganib chiqish uchun qabul qiladi. Islom banklari loyihalarni tegishli ma'sul xodimlari orqali o'rganib o'zlari lozim topgan loyihalargagina pul ajratadi. Bunda bank loyiha dehqon yoki tadbirkorni ma'suliyatsizligi yoki boshqa tashqi ta'sirlar orqali loyiha o'zini oqlamagan taqdirda pulini qaytari olish maqsadida mijozdan ta'minot talab qilishi mumkin.

Yuqoridagi takidlaganimizdek islom moliyaviy instrumentlaridan biri salamni yurtimizda joriy qilishning qator avfzalliklari bor:

1) Bugungi kunda O'zbekistonda aholining asosiy qismi musulmonlar bo'lganligi sababli, ushbu islomiy moliyaviy instrument tadbirkorlarimizga foizsiz kredit olish imkonini bersa, tijorat banklariga mijoz bazasini kengaytirish imkonini beradi;

2) Milliy iqtisodiyotimizda Yalpi ichki mahsulotni oshishiga, inflyatsiyani pasayishiga hamda ishsizlikni qisqarishiga xizmat qiladi;

3) Ko'plab loyihalar ichki manbalar hisobidan moliyalashtiriladi va tashqi qarzga talab kamayadi;

4) Ushbu salam shartnomasi orqali yetishtirilgan mahsulotlar importni qisqartirib, eksportni o'sishiga xizmat qiladi va bu orqali milliy valyutamizning xarid qobiliyati mustahkamlanadi;

5) Dehqon va fermerlarimizga ortiqcha qog‘ozbozliklarsiz tezkor va ishonchli moliyalashtirish manbai yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://kun.uz/news/2020/12/29/ozbekistonda-islom-moliyasi>
2. <https://kun.uz/news/2025/11/25/ozbekistonda-islomiy-moliya>
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Economy_of_Uzbekistan
4. <https://kun.uz/news/2025/07/26>
5. Fundamentals of islamic finance and banking. Syeda Fahmida Habib 2018, 145-152-pages